

деганда, биз, аввало, ҳар бир фуқаронинг тинч ва хавфсиз ҳаёт кечиришини, унинг фундаментал ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашни назарда тутамиз”.

Мухтасар айтганда, бугун Конституциямизнинг янги нормаларида асосий эътибор инсон, жамият ва давлатнинг барқарор ривожланишини таъминлашга қаратилганини ишонч билан таъкидлаш мумкин. Янги таҳрирдаги Асосий Қонуннинг қабул қилиниши билан бу борада янада мустаҳкам конституциявий-ҳуқуқий асос яратилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: 2023 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2023 йил 16 “Ўзбекистон Республикаси Конституцияси куни байрамига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тўғрисида”ги фармойиши.
3. [https://constitution.uz/uz/pages/Konstitutsiya\\_mustahkam\\_kafolat](https://constitution.uz/uz/pages/Konstitutsiya_mustahkam_kafolat).
4. 2023 йил 8 май “Янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясини амалга ошириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони

### Yangilangan Konstitutsiya O‘zbekiston taraqqiyotining strategik yo‘l xaritasi sifatida



**Xojiyev Elshod Yoqub o‘g‘li**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Marketing kafedrasi dotsenti v.b., PhD,  
+998 99 000 09 71

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan izchil islohotlarda “inson qadri uchun”, degan tamoyil ustuvor maqsad etib belgilangan. Ushbu maqsadni amalga oshirish nafaqat qonunlarimizni mustahkamlashni, shu bilan birga, Bosh qomusimizda ham inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan normalarni yanada takomillashtirib, bugungi zamon talablariga moslashtirishni taqozo etdi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev 2021 yili dekabr oyida, konstitutsiya bayrami arafasida xalqqa yo‘llagan tabrigida “Konstitutsiyani yangilashdek g‘oyat muhim, strategik vazifani hal etishda biz etti marta emas, etmish marta o‘ylab, xalqimiz bilan har tomonlama maslahatlashgan holda, yurtimiz va jahondagi ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rganib, aniq qaror qabul qilishimiz zarur”, deb ta’kidladi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning bevosita muallifi bo'lgan yurtdoshlarimiz tomonidan davlatimiz rahbarining prezidentlik saylovi targ'ibotlari jarayonlarida hududlarda saylovchilar bilan o'tkazgan uchrashuv va muloqotlarida bir necha bor aynan Konstitutsiyamizni bugungi zamon talablariga moslashtirishga oid bir qator taklif va tashabbuslar bildirilgan. Birgina misol davlat rahbarining Qoraqalpog'iston Respublikasi Bo'zatov tumanidagi saylovchilar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvida muloqotga tashrif buyurgan yurtdoshlarimiz tomonidan bugun ekologik muammolar kun sayin salbiy tus olayotgani, insonlarning ekologiya bilan bog'liq huquq va majburiyatlari kabi normalar Bosh qomusimizda o'z aksini topishi maqsadga muvofiq bo'lishi tashabbusi ilgari surilgan edi.

Bir necha oy davom etgan keng jamoatchilik muhokamalaridan so'ng, konstitutsiyaviy komissiyaga 60 mingdan ortiq takliflar, g'oyalar va xalqimizning xohish-istaklari kelib tushdi.

“Inson qadri” tamoyili yo'lida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning qabul qilingani mamlakatimizning yangi rivojlanish davrini boshlab berdi. Joriy yilning 30 aprel sanasida yangi tahrirdagi Konstitutsiya munosabati bilan o'tkazilgan referendumda ovoz berishda ishtirok etgan 16 667 097 nafar fuqarolarning yarmidan ko'prog'i, ya'ni 15 034 608 nafari yoki 90,21 foizi referendumga qo'yilgan “Siz “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonunini qabul qilasizmi?” degan masalaga “Ha” deb yoqlab ovoz berdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023 yil 1 maydan e'tiboran kuchga kirdi. 1992 yildan buyon Konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, Bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Rasmiylarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilandi.

Mazkur Konstitutsiyada quyidagi beshta asosiy tamoyil ilgari surilgan.

1. Yangi konstitutsiyada “davlat – jamiyat – shaxs” tamoyilidan “shaxs – jamiyat – davlat” tamoyiliga o'tish;
2. Iqtisodiy islohotlar jarayonida inson manfaatlarini ijtimoiy va adolatli davlat qurishning eng muhim shartlaridan biri sifatida ta'minlash;
3. Fuqarolik jamiyati institutlarining roli va mavqeini oshirish va mustahkamlash;
4. Atrof-muhit, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish;
5. Inson huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, bolalar mehnatining oldini olish, imkoniyati cheklangan shaxslar va keksa avlod vakillarining huquqlarini ishonchli himoya qilish.

Konstitutsiyaning yangi tahririga asosan: “Inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi”. Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo‘yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Konstitutsiyaga o‘qituvchilar to‘g‘risida modda qo‘shilib. Ushbu modda ikki banddan iborat:

KO - O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etiladi.

KI - Davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.

Shu tariqa, ustozlar huquq sohasi vakili bo‘lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylandi. Konstitutsiyada nomi keltirilgan o‘qituvchilardan boshqa kasb egalarining barchasini – huquq sohasi vakillari (sudyalar, prokurorlar va advokatlar) tashkil etadi. Boshqa holatlarda kasb egalari emas, sohalar haqida gap ketgan (masalan, ommaviy axborot vositalari, turli jamoat birlashmalari).

Yangi qayta ko‘rib chiqilgan konstitutsiyaga ijtimoiy adolatga asoslangan bir nechta moddalar kiritilgan. Masalan, pensiya miqdori, daromadlar va qonun bilan belgilangan boshqa turdagi ijtimoiy yordam kabi normalar rasmiy belgilangan minimal iste‘mol xarajatlaridan kam bo‘lmasligi, shuningdek hech kim sud qarorisiz uy-joydan mahrum etilishi mumkin emasligi qat‘iy belgilandi.

Yana bir muhim jihatni tilga olish joizki, har kimning yozishmalari, telefon orqali so‘zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqiga ega ekanligi belgilandi. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo‘l qo‘yilishi nazarda tutildi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta‘minlashga qaratilgan maqsadlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan.